



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA BAXSHICHILIK SAN’ATINING ETNOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Zaytuna Shamilevna
Termiz davlat universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonning janubiy hududlarida shakllangan dostonchilik maktablari o‘zining lokal xususiyatlari bilan yurtimizdagi boshqa dostonchilik maktablaridan farq qiladigan xususiyatga ega. Jumladan, ushbu maktab nomoyandalari do‘mbira jo‘rligida dostonlarni va termalarni asosan bo‘g‘iq ovozda ijro etishi haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sherobod, Qamashi, Qamay va Chiroqchi dostonchilik maktablari, “Malla savdogar”, “Balxuvon”, “Zaydaqul”, “Qo‘ng‘iriyot”, “Xonimoy”, “Ollonazar Olchinbek”, “Xurso‘na” va “Toshbosar” dostonlari.

ЭТНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСКУССТВА БАХШИ В ЮЖНЫХ РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА

Абдуллаева Зайтуна Шамилевна
Термезский государственный университет, преподаватель

Аннотация

В данной статье описываются местные особенности эпических школ, сформировавшихся в южных регионах Узбекистана, которые отличаются от других эпических школ нашей страны. В частности, приводится подробная информация о том, что представители этой школы исполняют эпосы и термы преимущественно приглушенным голосом в сопровождении барабана.

Ключевые слова: школы эпической поэзии Шерабад, Камаша, Камай и Чирокчи, эпосы «Малла Савдогар», «Балхувон», «Зайдакуль», «Конгириёт», «Хонимой», «Оллоназар Ольчинбек», «Хурсона» и «Ташбосар».

ETHNOLOGICAL FEATURES OF THE ART OF BAKHSHI IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN

Abdullayeva Zaytuna Shamilevna
Termez State University, Lecturer

Abstract

This article describes the local characteristics of the epic schools formed in the southern regions of Uzbekistan, which differ from other epic schools in our country. In particular, detailed information is provided on the fact that the representatives of this school perform epics and terms mainly in a muffled voice, accompanied by a drum.

Keywords: Sherabad, Kamashi, Kamay and Chiroqchi schools of epic poetry, the epics "Malla Savdogar", "Balkhuvon", "Zaydaqul", "Kongiriyot", "Khonimoy", "Ollonazar Olchinbek", "Khursona" and "Tashbosar".

Taniqli folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayev “Alpomish” dostonining Surxondaryo talqinlari bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borib, muhim natijalarga erishgan. M.Jo‘rayev

ta'kidlaganidek, "Alpomish" o'zbek xalq og'zaki ijodining eng muhim durdonalaridan biri bo'lib, milliy epik an'ananing asrlar davomida shakllangan badiiy evolyutsiyasini aks ettiradi. Doston syujetining arxaik qatlami qadimgi turkiy mifologik tasavvurlarga va epik an'analarga borib taqaladi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov dostonni alohida e'tirof etib: "Alpomish" – o'zbek milliy o'zligini namoyon etadigan, mard va tantanali xalqimizning yuragidan chiqqan, avloddan-avlodga uzatilgan qahramonlik qo'shig'idir, degan fikrni bildirgan[1:22].

Janubiy O'zbekiston epik arealida, xususan Surxondaryo viloyati baxshilari repertuarida, "Alpomish" dostonining jonli ijro shakllari hozirgacha saqlanib kelmoqda va ular ijro davomida yanada takomillashmoqda. Surxondaryo vohasida dostonchilik maktablari vakillari tomonidan ijro etilgan variantlar syujet qurilishining o'ziga xosligi, badiiy mukammalligi, hamda Alpomish haqidagi turli dostonlarni o'z ichiga olgan nasliy turkum sifatida shakllanganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, dostonning qo'ng'iroq versiyasining rivojlanishiga Surxondaryo vohasidagi uchta asosiy dostonchilik maktabi – Sherobod, Beshqo'ton va Boysun markazlari katta hissa qo'shgan. Bu maktablar doston ijrosining boy repertuarini saqlab, uning takomillashishiga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. "Alpomish" dostonining Surxondaryo variantlari O'zbekistonning boshqa hududlarida yozib olingan versiyalaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sherobod tumanida Mardonaqul Avliyoqul o'g'li ijrosida yozib olingan "Alpomish" dostonida ikki mingdan ortiq she'riy misralar mavjud. Mardonaqul Avliyoqul o'g'li talqinida, Qalmoqshohning qizi Tovka sayr qilayotganda tasodifan Alpomish yotgan choh ustidan chiqib qoladi va uni sochi bilan tortib olmoqchi bo'ladi. Biroq Alpomish uning taklifini rad etadi va uchqur tulpori Boychibor yordamida chohdan xalos bo'ladi. Mazkur variantning o'ziga xos jihati shundaki, Alpomish chohdan chiqib olgach, Qalmoqshoh qizi Tovkaga uylanadi va undan Qallochbek ismli o'g'il tug'iladi. Shu bilan birga, doston boshqa iqtidorli o'zbek baxshilaridan yozib olingan bo'lsa-da, bu motiv Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida yashagan Fozil Yo'ldosh o'g'li talqinida uchramaydi. Surxondaryo variantlarining eng muhim xususiyati esa – Alpomish qaytib kelgandan so'ngki o'lan aytishish motivining yo'qligidir. Surxondaryo baxshilari ijrosidagi "Alpomish"ning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, voha dostonchiligida bu epos bir necha asarni o'z ichiga olgan nasliy turkum sifatida shakllangan. O'zbekistonning boshqa hududlarida, masalan, boshqa dostonchilik maktablarida faqat Alpomishning o'g'li haqidagi "Yodgor" dostoni mavjud. Surxondaryo vohasida esa "Alpomish"ning davomi sifatida "Beva Barchin", "Yo'lichiboy" va "Shomurod" dostonlari ham ijro qilinadi[2:93].

Xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxondaryo baxshilari tomonidan alohida epik asar sifatida ajralib chiqqan "Beva Barchin" (yoki "Barchin bekach") dostoni 10 214 misra she'riy va nasriy qismlardan iborat bo'lib, Muzrabot tumanida yashovchi Chori baxshi Umirovdan yozib olingan. Qo'ng'iroq qabilasining turli hududlarga siljishi va yangi shakllanayotgan xalqlarning tarkibiga kirishi natijasida doston boshqa urug' va elatlarga ham moslashtirilib, keng tarqalgan va har bir xalq uchun alohida epik merosga aylangan. Bugungi kunda "Alpomish" dostonining og'zaki epik an'analarda yetib kelgan variantlari asosida turli talqinlar yaratilgan. Shu bilan birga, bu doston syujet va asosiy motivlarining mifologik va tarixiy-hayotiy ildizlari qadimgi davrlarga, hatto miloddan avvalgi zamonlarga borib taqaladi, bu esa uning tarixiy va madaniy ahamiyatini yanada oshiradi.

NATIJALAR. Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, ming yillar davomida har bir jamiyatning madaniyati va ma'naviy darajasi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Ayniqsa, sharqona ehtirom va e'zoz qadriyatlari biz uchun ibratli meros sifatida qolgan. Xalqimiz tarixida jasorati, matonati, aql-zakovati, nafosati va nazokati bilan o'chmas iz qoldirgan To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebunniso, Nodira, Uvaysiy va boshqa yuzlab ayollarimizni doimo

ehtirom bilan yodga olamiz.

“Alpomish” dostonidagi yetakchi obrazlardan biri – Boysarining qizi Barchin, Alpomishning sevgilisi, mard va dovyurak qiz sifatida tasvirlangan. U xalq ogʻzaki ijodidagi qahramonlik eposiga xos botir (alp) qiz qiyofasining anʼanaviy namunasini tashkil etadi. Ushbu obraz orqali ayollarga boʻlgan samimiy munosabat, katta eʼzoz va hurmat ifodalanadi, shuningdek, ayollarning yuksak insoniy qudrat va shon-sharafga ega ekanligi kuylanadi[3:14].

Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham doston qahramonlariga alohida eʼtibor qaratgan. U Barchin obrazini misol qilib keltirib, ayolning vatanparvarligi, mardligi va oilasiga sadoqatini yuqori qadrlaganini taʼkidlagan: “Shuning uchun ham Barchinoy dushmanlariga qarata gʻurur bilan: ‘Mening yorim bilsang, Boysun Sultoni’, deb aytadi. Bu fikr doston orqali xalqimiz ayol obrazlariga boʻlgan munosabatini, ularning jamiyatdagi oʻrni va maʼnaviy qadriyatlarini yuksak baholashini koʻrsatadi.

Baʼzi tarixiy manbalarda Barchin oʻgʻuz qabilalariga beklik qilgan ayol sifatida taʼriflanadi. Uning maqbarasi Sigʻnoqdan taxminan 5 km janubiy-sharqda joylashgan. (Izoh: Abulgʻoziy Bahodirxon (1603–1664) “Shajarayi tarokima” asarida oxirgi qism shunday nomlanadi: “*Oʻgʻuz elina beklik qilgʻan qizlarning zikri*”. Asardan keltirilgan parchada aytilishicha: “...yetti qiz barcha oʻgʻuz elini ogʻzina baqindurub, koʻp yillar beklik qildilar. Anlarning biri Oltin Koʻzacha, Sundun boyning qizi va Salur Qazan Alpning Hali (Xili) boʻyi uzun boʻlur erdi. Ikkinchi Qaromish boyning qizi va Mamashbekning hali (xili) Barchin Salur erdi, aning qabri Sir suvining yoqasida turur va xalqgʻa mashhur turur, oʻzbek anga Barchinning Koʻk kashona der, koshinkorli yaxshi kaniz turur,...”. Matnda Salur soʻzi kichik va bosh harflarda berilgan, aslida esa solor yoki sipohsolor maʼnosida – yaʼni lashkarboshi, hali yoki hili-doʻst, yoʻldosh, xotin degan maʼnoni bildiradi. Bu kontekstda Salur (solor) Qazan Alp “Dada Koʻrkut” qahramonlaridan biri sifatida tilga olinadi. Shuningdek, Qaromish (Qorajon) va Mamashbek nomlari Alpomish, Alpomsha, Alpmanash bilan bogʻlanadi. Nashr matnida “yaxshi” soʻzi ikki joyda uchraydi, ammo asl matnda bu soʻzning biri “baxshi” sifatida berilgan. Chunki Abulgʻoziy Bahodirxon oxirgi qismni shunday boshlaydi: “Turkmanning tarix bilaturgʻan baxshilari va yaxshilari aytib tururlar.” Bu ibora doston va tarixiy rivoyatlar kontekstida baxshi va yaxshi terminlarini ajratib tushunish zarurligini koʻrsatadi[4:55].

MUHOKAMA. Sovet davrida “Alpomish” dostonining qatagʻon siyosati va tarixi Sovet davlatining qatagʻon siyosati nafaqat siyosiy arboblardan olimlarni, balki milliy maʼnaviy merosimizning durdonalarini ham siquv va taʼqib ostiga oldi. Shu davrda, ayniqsa, “Alpomish” dostoni 1950-yillarning boshida taʼqiqlangan va uning oʻqilishi va yozilishi man etilgan edi. Doston qahramoni Hakimbek feodal qarashlarni himoya qiluvchi davlat egasi sifatida kamsitilgan, asar esa feodal urushlarni madh etuvchi va “millatchilik gʻoyalari”ni targʻib qiluvchi asar sifatida qattiq tanqid qilingan. Shu sababli, har bir ezgulik va yaxshi insonning timsoli sifatida doston va uning qahramonlari ham qatagʻon siyosatining qora bulutlari ostida qolgan edi. “Alpomish” – xalqimizning tarixiy qahramoni va asriy orzu-armonlarini ifodalovchi doston boʻlib, uning nomi ham mazmunan chuqur maʼno kasb etadi. “Alp” soʻzi buyuk kuch, qudrat, pahlavonlik, aql va bahodirlikni bildiradi, “mish” qoʻshimchasi esa qilmish, qidirmish va oʻtmish voqealarini ifodalaydi. Shu bilan, “Alpomish” birdan yaratilgan doston emas, u ming yillar davomida shakllangan, davomiy ravishda toʻldirib borilgan asardir. Dostonning Surxondaryo vohasidagi variantlari, xususan, Fozil Yoʻldosh oʻgʻli va boshqa baxshilar ijrosidagi versiyalar, islom dini paydo boʻlgan davr keyingi talqinlar sifatida tarixiy iz qoldirgan. Yuzlab baxshilar “Alpomish” dostonini yaratishda ishtirok etib, uning ilk boshlanishini Alp Ertunga bobolarimizning hayoti va kurashi bilan bogʻlagan. Surxondaryo vohasida “Alpomish” dostonini toʻla variantlarini yaratishda quyidagi baxshilarning hissasi alohida ahamiyatga ega: Xushboq baxshi Mardonaqul oʻgʻli, Chorsha baxshi Rahmatulla oʻgʻli, Qora baxshi Umirov va Shoberdi baxshi Boltayev. Shu jumladan, Shoberdi baxshi Boltayev ijodi davlatimiz tomonidan

“O‘zbekiston xalq baxshisi” unvoni bilan munosib taqdirlangan.

“Alpomish” dostonining o‘ziga xosligi va baxshilardagi talqinlari. “Alpomish” dostonini baxshilar eng sevimli va shoirlik beshigi sifatida qadrlashadi. Uni o‘zbeklar Alpomish, qozoqlar Alpamis, qoraqalpoqlar esa Alpamiz deb kuylaydilar. Qozoqcha variantlarda esa janjal va qarama-qarshiliklar kam uchraydi.

Asarda qahramon Qultoy Boybo‘rining amakivachchasi Ulton tasvirlanadi. Ulton Qultoyning nikohsiz cho‘risidan tug‘ilgan o‘g‘il bo‘lib, Boybo‘rining uyida farzandsizligi tufayli bahaybat, beso‘naqay va kuchli o‘sadi. Uning tashqi qiyofasi: qo‘kragi g‘aramday, burni tepaday, har tishi ketmonday, og‘zi katta o‘choqday, ko‘zlari chuqur zindon kabi chuqur ko‘rinadi. Shunga qaramay, u Boybo‘riga quloq solmaydi va bolasizligini yuziga soladi. Shu sababli, Alpomish katta bo‘lganida, Ultonning tovonini qirqadi. Ultonni hech kim xush ko‘rmaydi, shu jumladan Saribiy ham. Doston syujetida asosiy qarama-qarshiliklardan biri – Alpomish Boybo‘rining yagona o‘g‘li ekanligi bilan bog‘liq. Agar taqdir bevafoqlik qilib, u vafot etsa, elning qonuniga ko‘ra Gulbarchin Ultonqulga qoladi. O‘zbek dostonchiligida esa bu voqealar talqinga ko‘ra farqlanadi. Masalan, Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul talqinida voqealar xom sapchalarni uzish atrofida rivojlanadi va Boybo‘rining “Boysari o‘lib, moli o‘g‘limga qoladi” degan so‘zlari bilan bog‘lanadi. Egamberdi baxshi talqinida esa asosiy mojaro suv talashish atrofida kechadi.

Sherna baxshi o‘z talqinini shunday boshlaydi:

“Qadim o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi. Dobonbiydan Olpinbiy degan o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi. Olpinbiydan tag‘in ikki o‘g‘il paydo bo‘ldi: kattakonining otini Boybo‘ri, kichkinasining otini Boysari qo‘ydi. Ikkovi ham katta bo‘ldi. Boysari boy edi. Boybo‘risi esa shoh edi, ikkovi ham farzandsiz bo‘ldi.” Bu misralarda xalq hayoti tinch, osuda tasvirlangan: ota o‘lib, o‘g‘li o‘rniga o‘tayotgan necha yillar davomida xalq odatdagi mehnat bilan yashaydi, uch mahal qorin to‘ydiradi va ertangi kun umidida uyquga ketadi. Shu bilan birga, Boybo‘ri va Boysari saltanatga kelishi bilan voqealarda o‘zgarish seziladi: Boybo‘ri shoh bo‘lsa-da, Boysari ham mustaqil odam sifatida o‘z o‘rnini topadi va “o‘n ming uyli qarindosh”ning “ulug‘ to‘rasi” sifatida mavqega ega bo‘ladi[5:33].

“Alpomish” dostonida shohlik va farzand tug‘ilishi motivlari

“Alpomish” dostonida bir elda ikki hokimiyat mavjudligi, lekin ularning bir-biriga mutelik jihatdan bog‘langanligi syujetning asosiy dramatik elementlaridan biridir. Masalan, xalq og‘zaki ijodida quyidagi misralar uchraydi:

“Muna elda men ham bekman to‘raman”

Yoki: “Muna elda o‘zing ulug‘-to‘rasan,

har ne qilsang, shohim, o‘zing bilasan.”

Bu yerda bir elda ikki shohlik hokimiyati mavjud, ammo bir shohlik ikkinchisiga ta‘sir qiluvchi joyi borligi ifodalanadi. Dobonbiylar davrida to‘ylar odatiy bo‘lgan, biroq aka-uka davridagi “bir chuparon to‘y” shohlik saltanatidagi ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarni aks ettiradi. To‘y marosimlarida aka-uka ilgari izzat qilinganidek hurmat qilinmaydi, ularga oshning “ketini-betini” beriladi.

Syujet davomida qahramonlar shunday tanbehni eshitadi: “Ey, Boybo‘ri bilan Boysari! Bu to‘y ullining ulidan, qizlikning qizidan qaytadi. Senlarning nimangdan qaytadi? O‘lsalaring mollaringga har merosxo‘r chiqadiki, og‘ziga odam kirib ketadi. Sening bundan buyoqdagi yeydiganing oshning keti-beti bo‘ladi. Biz senlarning davlatingdan bo‘lib olamizmi?”

Ular xafa bo‘lib, chuparonlarga sakson tilladan tashlab, to‘y marosimidan chiqib ketadi. Farzand masalasi esa Shohimardon Ali mozoriga borib sig‘inish bilan bog‘lanadi. Qirq kecha-kunduz mozorni ziyorat qilgach, g‘or ovozi orqali ularga xabar yetkaziladi: “Boybo‘ri, xudo senga ul bilan qiz yubordi, birdaniga egizak yubordi. Boysari, senga ham xudo farzand ato qildi. Lekin egizak emas, bitta qiz ato qiladi. Endi uyingizga ketinglar, bolalar tug‘ilganda xalqqa katta to‘y beringlar. To‘yga qalandar bo‘lib o‘zim boraman. Bolalarning har biriga ism qo‘yaman.”

Ushbu voqea doston syujetida farzand tugʻilishi motivining diniy va xalq eʼtiqodlari bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Farzand tugʻilishi shoirlar va baxshilar tomonidan “yaxshi niyat” va diniy aqidalar bilan izohlanadi, bu esa qahramonlarning hayotidagi muhim bosqich sifatida aks ettiriladi. Shu bilan birga, bu motiv orqali xalq tasavvuri, ijtimoiy odatlar va dostonning maʼnaviy qatlamlari ham ochib beriladi[6:77].

XULOSA. Fozil Yoʻldosh variantida qahramon Shohimardon Ali qudrati bilan tugʻiladi va Alining oʻzi qalandar qiyofasida kelib, qahramon ikki kuraging oʻrtasiga panja uradi, qahramonning «oʻtda kuymasligi, suvda choʻkmasligi va qilich chopmasligi» shu bilan izohlanadi va yetti yoshida bobosidan qolgan 14 botmon parli yoyni otib, Asqar togʻining choʻqqisini uchiradi. Demak, “Alpomish” ga har bir baxshi oʻzicha yondoshadi. 1991-yil sevimli diyorimiz Oʻzbekiston mustaqilligi eʼlon qilindi va BMT ning teng huquqli davlatlaridan biriga aylandi. Bu toʻplanib yotgan muammolarni (jumladan, maʼnaviyat sohasida ham) hal etishga katta va bebaho imkoniyat yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov. Ozod va Obod Vatan, Erkin va farovon xayot pirovard maqsadimiz. T., 8 tom,”Oʻzbekiston”. 2000. (525). (Alpomish dostonining 1000-yillik yubileyidagi maʼruzasi. 1999-yil 6-noyabr.). – B.78.
2. “Alpomish”-oʻzbek xalq qahramonlik eposi”.– T, 1999.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Ozod va Obod Vatan, Erkin va farovon xayot pirovard maqsadimiz. T.,8tom,”Oʻzbekiston”. 2000. (525). (Alpomish dostonining 1000-yillik yubileyidagi maʼruzas. 1999. 6-noyabr.)
4. Abulgʻoziy Bahodirxon. Shajarayi tarokima. –Toshkent: Choʻlpon, 1995. –B.48.
5. Rahmatullayev Sh. “Alpomish” ohanglari Surxon tongi. 1999. 12-may. № 60-61. – B. 2.
6. Tursunov S.N., Pardayev T.R. ”Oʻzbekistonda baxshichilik sanʼatining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi”. “Tafakkur”, 2015. –B.64..